DOI

Ikramova M.X., p.f.f.d. (PhD)
Qo'qon DPI, Texnologiya ta'limi kafedrasi o'qituvchisi,
Eshonxonova O.J.
Qo'qon DPI, Texnologiya ta'limi yo'nalishi talabasi

TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING METODIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Texnologiya ta'limi o'qituvchisining metodik kompetentligini shakllantirishga oid ma'lumotlar va qarashlar keltirib o'tilgan. Texnologiya fani o'qituvchilarini metodik kompetensiyalarini takomillashtirishga oid tushunchalar va tavsiyalar batafsil keltirib o'tilgan.

Tayanch so`zlar: texnologiya, fan, elektron, o'quv, adabiyot, kompetensiya, metodika, jarayon, tashkil etish, tushuncha, didaktik.

Ikramova M.X., p.f.f.d. (PhD
Kokan DPI, Lecturer, Department of Technology Education,
Eshonkhanova O.J.
Kokan DPI, student of Technology Education

FORMATION OF METHODOLOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER OF TECHNOLOGY EDUCATION

Abstract. This article provides information and views on the formation of methodological competence of the teacher of technology education. Concepts and recommendations for improving the methodological competence of technology teachers are given in detail.

Key words: technology, science, electronic, educational, literature, competence, methodology, process, organization, concept, didactic.

Ta'lim olish, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yaqqol namayon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, yetuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga ahamiyat berishgan.

Buyuk allomalarimiz o'z asrlarida mehnatni ulug'lashni, kasb-hunar egalariga xurmat va extiromni ta'kidlab o'tganlar. Yusuf Xos-Hojib, Axmad Yugnakiy, Bahovuddin Naqshbandiy, Shayh Najmiddin Kubro, Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Imom-al Buxoriy, va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, kasb-hunarni ulug'laganlar. Yuqorida sanab o'tilgan buyuk allomalar o'z hayoti

https://wordlyknowledge.uz

va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug'lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil ish bajarishning naqadar muhimligini ta'kidlaganlar.

Kasbiy faoliyatda mehnat ta'limi o'qituvchisining metodik kompetentligini shakllantirish orqali inson hayotga, shaxs tarbiyasiga, ijimoiy munosabatlar rivojlanishga ma'lum ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchisi metodik kompetentligini shakllantirishda ta'limni taraqqiy ettirishning ishlab chiqilgan mehnat ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning modeli – ta'lim va ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik hamda muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi, motivasion xislatlar, intellektual salohiyat, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy sifatlar, o'z-o'zini boshqara olish sifatlarini ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishda aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning o'qitish va tarbiyalashda eng asosiy ta'sirni o'qituvchi ko'rsatar ekan, o'qituvchining metodik kompetentligini shakllanganligi, o'quv va tarbiya jarayonini boshqarishda namoyon bo'ladi. O'quvchilarni to'g'ri tarbiya va bilim olishi, ularning baholari yaxshi bo'lishiga bog'liqdir.

"Kompetentlilik" tushunchasi (lotinchadan competenlia, compete so'zidan olingan bo'lib – "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni beradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. (*Katta ensiklopedik lug'at L.N.Azrilyan tahriri ostida –M. "Huquqiy madaniyat" fondi, 1994-528 bet*). "Kompetentli" inson o'z ishida qandaydir masalani bilag'oni deb tan olingan, xabardor bo'lgan, obro'li, to'la huquqli, doiralarda vakolatga ega bo'lgan, qobilyatli degan ma'nolarni anglatadi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadilar. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning, qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa xolatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)", "kimdir yaxshi xabordor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi. Shuningdek, pedagogik kompetentsiya ta'rifi quyidagicha ham bo'lish mumkin: "pedagoglik maxoratiga ega shaxs sifatida obro'lilik, sezish, tajriba kabi masalalar, hodisalar to'plami (doirasi); vakolatlar doirasi, savollar, hodisalarni nimalarnidir yurgizishga to'g'ri keladigan soha", "pedagog shaxsining shaxsiy imkoniyatlari" uning malakasi (bilim, tajriba), muayyan doiradagi qarorlarni ishlab chiqishda qatnashishni ta'minlaydigan yoki muayyan bilimlar, o'quvlar borligi evaziga o'zini xal etishi tushuniladi. *(Lomakina O.E Xorijiy tillarni o'qitish tizimini loyihalashni texnologik asoslari: konsepsiya, nazariya, amaliyot: Monografiya-Volgograd: "Peremena", 2002-224 bet).* Shuningdek ilmiy

https://wordlyknowledge.uz

adabiyotlarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari ko’p ko’rinishda bo’ladi.

1. *Kompetentlik* – kasb talablariga mos kelishlik darajasini individual tavsifi (ko’rsatkichi) (Markova A.K.).

2. *Kompetentlik* – tushunchalar tizimi va tushunish bo’lishligini talab etadigan, amaliy faoliyatni amalga oshiruvchi qobilyat, yuzaga keladigan muammo va vazifalarni tezkor hal qilishga imkoniyat yaratuvchi, o’ylashning mos ravishdagi tipi (Milovanova N.G., Prudaeva V.N.).

3. *Kompetentlik* – shaxsning o’zaro bog’liq sifatlari yig’indisi (bilimi, ko’nikmalari, uquvlari, faoliyat usullari), muayyan doiradagi predmetlar va jarayonlarga nisbatan zaruriy sifatiy mahsuldorlik faoliyati uchun beriladi (Xutorskiy A.V.).

4. *Kompetentlik* – shaxsning kompetensiyasi to’g’risida o’z fikri yohud atrofdagilar fikri, lekin bu ularni muayyan hayotiy holatlardagi huquqlarida namoyon bo’ladi degani emas.

5. Kompetentlik – “obro’lilik, to’la xuquqlilik” (Akof R. Bo’lajak korparasiyani rejalashtirish. M. 1985-327 b.).

6. *Kompetensiyalar (tor ma’nosi)* – ishchini o’z joyida bajarishi kerak bo’lgan huquqiy uquvlariga qayd etilgan xujjatli talablar.

7. *Kompetensiya* – ta’lim olish hisobiga hosil qilingan, bilimlar va tajribalarga asoslangan, shaxsning faoliyatiga qobiliyati va tayyorligi, shaxsning o’quv bilish jarayonidagi mustaqil qatnashishi, shuningdek uning mexnat faoliyatiga muvaffaqiyatli kirishishidir (Shitov S., Agapov A.).

8. *Kompetentlik* – muayyan tushunchalar tizimi va tushunishlar talab etadigan amaliy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni tezkor hal qilishni ta’minlaydigan tipga mos keladigan fikr yuritish.

9. *Kompetentlik (keng ma’noda)* – Yerdagi muvozanat holatini ta’minlash uchun inson qo’llanishi kerak bo’lgan ahloqiy uquvlariga xujjatiy qayd etilgan talablar (Rudik G.).

Stiv Uiddet va Sara Xollifordlar, “umumiy qarashlar shakllanib, ularga muvofiq “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari quyidagi ma’nolarni beradi deb xisoblaydilar:


1. Ishchi vazifalarni hal qilish uchun va ishning zaruriy natijalarini olish uchun zaruriy qobilyat, ko’p hollarda kompetentlik aniqlanadi.

2. Ahloqning zaruriy standartlari aksidagi qobiliyat kompetentlik – deb aniqlanadi.


Shunday qilib, agar Eyler aylanalari ko’rinishida kompetentlik va kompetensiyaning o’zaro nisbati ko’rsatilsa unda “kompetensiya” birlamchi, “kompetentlik”- ikkilamchi ekanligi ko’rsatib o’tiladi. Berilgan ahloqiy uquvlarga ko’ra shaxs o’zining u yoki bu sohadagi kompetentligini shakllantiradi va agar kompetentlilik va kompetensiya ularning interferensiyasida birlashsa (mos tushsa), unda shaxs kompetentli deb hisoblanadi.

https://wordlyknowledge.uz

1-rasm. Kompenentlilik va kompetensiya tushunchalarining an’anaviy ta’limdagi bog’lanishi.



2-rasm. Kompenentlilik va kompetensiya tushunchalarining kompenetli ta’limdagi bog’lanishi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Хонбобоев, Х. О., Икромова, М. Х., & Икромов, М. А. Х. (2016). Ta’limda axborot texnologiyalarni qollashning oziga xos xususiyatlari. Молодой ученый, (3-1), 21-22.
2. MUBINAKHON, I., & ANASKHON, I. M. The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education. JournalNX, 7(1), 106-108.
3. Ikramova, M. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(9), 1-4.
4. Isaqova, Z., M. Ikramova, and M. Abdusamatova. "TO EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.12 (2021): 868-870.
5. Ikramova, M. Kh. "USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN" TECHNOLOGY" CLASSES." Open Access Repository 8.11 (2022): 116-120.

https://wordlyknowledge.uz